

ODAM SAVDOSI DAVR MUAMMOSI

Toysirov Muhriddin Zoir o‘g‘li

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institute talabasi

ANNOTASIYA

Bu maqolamda so‘nggi paytlarda odam savdosi butun dunyo hamjamiyatini tashvishga solayotgan jiddiy muammoga aylanayotganligi. Fuqarolarning chet ellarga noqonuniy vositachilar yordamida ish topib, qalbaki hujjatlar rasmiylashtirishi, noma’lum odamlarga pasport va boshqa shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini topshirib qo‘yishlari ularning tom ma’noda qulga aylanib qolishlariga nimalar sabab bo‘layotganligi va buni qanday qilib oldini olish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlari: Odam savdosi, aldov, huquq, firibgarlik, jinoyat, xalq, qul, kambag‘allik.

Sayyoramizda bir qator global muammolar borki, bular sirasiga bevosita odam savdosi singari transmilliy jinoyatlarni ham kiritish mumkin. Yildan-yilga bu illatdan jabr chekayotganlar, uning qurboni bo‘layotganlar soni ortib bormoqda. Hudud va chegara bilmaydigan bu jinoyatning har biri jamiyat taraqqiyoti va davlatlar rivojiga jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Odam savdosidek og‘ir jinoyat inson hayoti, erkinligi va huquqlarini poymol qilib, uning erki, taqdiri va kelajagini oyoq osti qiladi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab qonunlarimizda, Konstitutsiyamizda va butun dunyo tan olgan xalqaro qonunchilik normalarida mustahkamlangan inson huquqlari va erkinliklarini ta’minalash, uning hayoti, sog‘lig‘i, qadr-qimmati, sha’ni va boshqa qonuniy manfaatlari daxlsizligini himoya qilish ustuvor vazifalardan biriga aylandi desak adashmagan bo‘lar edik. Mustaqil demokratik yo‘ldan ketayotgan O‘zbekistonning eng oliy maqsadi, avvalo, xalqimiz manfaatlariga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishga yo‘nalgani bilan e’tiborlidir. Afsus bilan ta’kidlash joizki, mamlakatimizda ayrim shaxslar oson yo‘l bilan katta mablag‘ topish ilinjida jinoyat sodir etish yo‘liga kirib, fuqarolarimizni turli aldov yo‘li bilan tuzog‘iga ilintirib, ulardan o‘zlarining manfaatlari yo‘lida foydalanib, ko‘pgina oilalarning boshiga so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydigan kulfatlar keltirib, odam savdosi bilan shug‘ullanib kelmoqdalar. Oqibatda ko‘pgina fuqarolarimiz odam savdosi jinoyatining qurboniga aylanishmoqda. «Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunida odam savdosi jinoyatining tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan. Odam savdosi — bu kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud boshqa majburlash shakllaridan foydalanish,

o‘g‘irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiiste’mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun uni to‘lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og‘dirib olish orqali odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilishni, shuningdek, odamlardan foydalanish maqsadida boshqa shaxslardan foydalanishni yoki ulardan shahvoniy foydalanishning boshqa shakllarini, majburiy mehnat yoki xizmatlarni, qullik yoki qullikka o‘xhash odatlarni, erksiz holat yoxud inson a’zolari, to‘qimalarini ajratib olishni anglatadi. Odam savdosi qadimdan mavjud bo‘lgan jinoyatlardan biridir. Tarixga nazar soladigan bo‘lsangiz, antik davrda va o‘rta asrlarda ham odam savdosiga oddiy hol sifatida qaralgan. Bunda savdo-sotiq ob’ekti - inson qul maqomida bo‘lgan. Odam savdosiga qarshi kurashish XIX asr oxiri va XX asr boshlarida xotin-qizlarning Evropadan Amerika va Shimoliy Afrika qit’alariga keng ko‘lamli migratsiyasi hamda ayollarni Evropaga sotish hodisasi kuzatilgan. Bu hodisaga barham berish maqsadida Parijda 1902 va 1910 yillarda ikkita konferentsiya o‘tkazilib, “Oq qullar savdosiga qarshi kurash” nomli butunjahon Konventsiyasi qabul qilingan. Keyinroq ushbu konventsiya “Ayollar va bolalar savdosini yo‘qotish” va “voyaga etgan ayollar savdosini yo‘qotish” nomli butunjahon Konventsiyalari bilan to‘ldirilgan. Odam savdosi muammosiga qarshi kurashishning keyingi tarixiy jarayonlari sekin-asta rivojlanib, 1948 yilda “Inson huquqlari” umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilingan.

Shundan so‘ng “Inson huquqlarining Evropa Konventsiyasi”, “Qullik xususida”gi Konventsiya, “Qullikni yo‘qotish amaliyoti to‘g‘risida”gi qo‘sishimcha Konventsiya, “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konventsiya, “Ayollarga qarshi diskriminatsiyaning har qanday ko‘rinishlariga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Konventsiyalar qabul qilinib, dunyoning ko‘plab mamlakatlarda qo‘llanila boshlandi. 2013 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 30-iyul “Butunjahon odam savdosiga qarshi kurashish kuni” deb e’lon qilingan. Ayni paytda transmilliy uyushgan jinoyatchilikning uzviy tarkibiy qismi bo‘lgan bu turdagи jinoyat dunyo miqyosida keng tarqalmoqda. BMT va Migratsiya bo‘yicha xalqaro tashkilot mutaxassislarning tahliliy xulosalariga ko‘ra, undan jabr ko‘rganlar soni bir necha millionlarini tashkil etadi. Tashvishlanarlisi, odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlarning asosiy qismini ayollar va bolalar tashkil qilmoqda. Odam savdosi faqatgina O‘zbekiston Respublikasining muammosi sifatida qarashimiz noto‘g‘ri bo‘ladi, chunki hozirgi kunda odam savdosi bilan bog‘liq jinoyatlar ko‘plab mamlakatlarda keng tarqalib butun dunyo hamjamiyatini xavotirga solmoqda.



Bugungi kunga kelib odam savdosining avj olishiga, ya’ni insonni qandaydir bir buyum sifatida, ta’bir joiz bo‘lsa insonni oldi-sotdining ob’ekti sifatida foydalanilishi, ularning huquq va erkinliklarining poymol etilishiga nimalar sabab bo‘lmoqda?

— odam savdosi kabi noqonuniy faoliyat turi bir yoki bir necha a’zolardan iborat guruhlarning serdaromad manbasiga aylanib borayotgani, ya’ni ularning hech qanday og‘ir va mashaqqatli mehnatlarsiz mo‘may daromad olishga urinayotganligi;

— odam savdosining qurbaniga aylanayotgan shaxslarning soddaligi, o‘zining, yaqinlarining taqdiriga va kelajagiga befarqligi, loqaydligida. Ya’ni eng oliy ne’mat hisoblanmish erkin hayot tushunchasiga nisbatan yengil va beparvolik bilan qarashlari oqibatida ushbu odam savdosini amalga oshiruvchi jinoyatchilarining o‘ljasiga, aniqrog‘i ularning oson daromad manbaiga aylanib qolmoqdalar;

— odam savdosini amalga oshiruvchi jinoyatchi shaxslar o‘zlarining tanishlari, yaqin qarindoshlariga nisbatan, ya’ni ularning ishonchiga kirib olib, ularning odam savdosini qurbaniga aylanib qolishiga sababchi bo‘layotganligida;

— odam savdosining qurbaniga aylanayotgan shaxslarning or-nomus qilib, ko‘rgan xo‘rliklari, ularga nisbatan ishlatilgan turli xildagi jismoniy yoki ruxiy tazyiqlar haqida yohud o‘zining noqonuniy ravishda chegarani buzib chiqib, chet davlatda hech qanday davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan, noqonuniy mehnat faoliyatini

amalga oshirganligidan qo‘rqib bular haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat etmasligi.

Eng yomon tomoni, odam savdosi bilan bog‘liq jinoyatchilikning keng quloch yozishiga: aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari - ishsiz yurgan fuqarolar, turmush hayotida ko‘p qiyinchilikka uchragan ayollar va ota – onasining e’tibori va qaramog‘idan chetda qolgan voyaga etmagan shaxslarning go‘yoki ularning muammolarini hal qilgan kabi ko‘rinib, o‘zlarining g‘arazli maqsadlarida foydalanayotganlidadir. E’tibor berdingizmi asosan kimlar odam savdosi qurboni bo‘lishi mumkin. Aynan pulga muhtoj aholi qatlamlari, ya’ni kambag‘al oilalar. Mana qayerdan boshlanmoqda bu illatlar... Shu o‘rinda yana shuni aytishni lozim deb bildim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagi PQ-4653-sonli

“O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi tashkil etildi. Ushbu qarorlar ijrosida ham odam savdosiga qarshi kurashishga qaratilgan ishlarni ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni ayta olamanki, butun dunyoning og‘riqli nuqtasi bo‘lmish odam savdosi va majburiy mehnat jinoyatlariga qarshi kurashish uchun avvalo biz metin iroda va sog‘lom aql bilan kurashmog‘imiz zarur. Odam savdosiga qarshi kurash borasida aholining turli qatlamlari, ayniqsa, ayollar va voyaga yetmagan shaxslarga odam savdosi kabi illatning farovon turmush-hayotimizga soladigan xavfi va salbiy oqibatlari to‘g‘risida tushuntirish ishlarini olib borish, ya’ni, aholining gavjum joylarida, mahallalarda, turli xil ta’lim muassasalarida, davlat idoralari, korxona, muassasa, tashkilotlarda targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish, keng tushuntirish ishlarini amalga oshirish, ularda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirish asosiy vazifalardan biridir. Qonunning qabul qilinishi esa odam savdosidan jabrlangan fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini kafolatli himoya qilishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. “Odam savdosi va migrantlar kontrabandasi bo‘yicha UNODC”. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi. 2011. Olingan 22 mart 2011.
2. “A’zolarni olib tashlash maqsadida organlar, to‘qimalar va hujayralarni sotish va odam savdosi” (PDF). Birlashgan Millatlar. 2009 yil. Olingan 18 yanvar 2014.
3. <https://soh.uz/index.php?site/view/news/1314>

4. <https://kun.uz/uz/news/2019/11/13/ozbekistonda-odam-savdosi-bilan-bogliq-jinoyatlar-2-yilda-32-barobarga-kamaydi>
5. Majburiy mehnatga qarshi kurash bo‘yicha maxsus harakatlar dasturi (2014 yil 20-may). “Foyda va qashshoqlik: majburiy mehnat iqtisodiyoti” (PDF). Xalqaro mehnat tashkiloti. p. 4. Arxivlangan asl nusxasi (PDF) 2017 yil 13 oktyabrda. Olingan 24 oktyabr 2016.